

FERMER XO‘JALIKLARIDA XARAJATLARNI BOSHQARISHDA ETAKCHILIK STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.

TKTI katta o‘qituvchi (PhD)

Azimova Xurshida Mirsamadovna

E-mail: hurshidazimova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-7983-419X>

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz fermer xo‘jaliklarida xarajatlarni boshqarishda etakchilik strategiyasidan foydalanish modellari, fermer erkin bozorga kirib kelishi, fermer xo‘jaliklari rahbarlari faoliyati to‘g‘ri tashkil qilinishi xaqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fermer xo‘jaliklari, baholash me‘zonlari, bug‘doyni etishtirish xarajatlari, etakchilik sifatlari, shaxsiy fazilatlar, korrelyasion taxlil, endogen o‘zgaruvchilar, egzogen o‘zgaruvchilar.

Bozorga olib chiqiladigan bug‘doy raqobatbardosh bo‘lishi uchun uning bahosi raqobatchilar baholaridan pastroq bo‘lsa, ustunlikga erishiladi. Buning uchun bug‘doyni etishtirish xarajatlari past bo‘lishi kerak. Aynan shu masalani echishda xarajatlar bo‘yicha etakchilik strategiyasini qo‘llash zarur bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 2022 yil 30 mayda qabul qilgan “2022 yil hosilidan bug‘doyni xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga ko‘ra xosilning davlat buyurtmasidan ortiqcha qismini fermer erkin bozorda kelishilgan bahoda sotishi mumkin.

Bozordagi ko‘pchilik xaridorlarning baholarga nisbatan talabchanligi kuchaygan sari past xarajatlar bilan maxsulot taklif etish kuchli raqobat mavqeini yaratadi. Bunday strategiyani qo‘llashdan maqsad xarajatlar bo‘yicha raqobatchilarga nisbatan ustunlikka erishib, bozordagi ulushni ko‘paytirishdan iborat bo‘ladi. Natijada qo‘shimcha foyda olishning ikki imkoniyati tug‘iladi:

- sotuvlar xajmining ko‘payishi hisobiga;
- bug‘doyni bozor baholarida sotish hisobiga.

Bu ustunlik raqobatchilar o'z maxsulotlari baxolarini pasaytirib, bozordagi ulushlarini avvalgi xajmiga olib chiqquncha saqlanib turadi. Odatda, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishning quyidagi usullari qo'llaniladi:

- ishlab chiqarish xajmlarini ko'paytirish xisobiga maxsulot tannarxi pasayadi;
- xarajatlarni tejash tajribasiga asoslangan ishlab chiqarishda "o'qitish/tajriba" egri chizig'i vaqt o'tgan sari mexnat unumdorligining o'sishiga olib keladi, natijada mexnatga xaq to'lash xarajatlari darajasi pasayadi;
- qadriyatlar zanjirida faoliyatning boshqa turlari bilan aloqa o'rnatish zanjirining bir bo'g'inida xarajatlari yuqori, boshqa bo'g'inida past bo'lsa, bu bo'g'inlarni o'zaro muvofiqlashtirish natijasida jami xarajatlari darajasini pasaytirish mumkin bo'ladi;
- korxona ichidagi turli ishlab chiqarish birliklari imkoniyatlaridan birgalikda foydalanish turdosh bo'linmalar bilan birgalikda xarakatlanish xarajatlarini sezilarli darajada pasaytiradi;
- noturdosh faoliyat turlarini outsorsingga chiqarib, turdosh faoliyat turlarini vertikal integratsiyalash natijasida tranzaksiya xarajatlarini bartaraf etish xisobiga jiddiy tejamkorlikka erishish mumkin bo'ladi;
- jug'rofiy joylashuv qulayligidan foydalanish xodimlarning maoshiga, soliqlar darajasiga, maxsulotlarni tashish, ortish, tushirish xarajatlari bevosita ta'sir qiladi.

Xarajatlari bo'yicha etakchilik strategiyalarini qo'llashda yuqorida keltirilgan usullardan tashqari inson omilini ham xisobga olish lozim. Bug'doy etishtirish xarajatlari fermer xo'jaligi raxbarining etakchilik salohiyati va shaxsiy fazilatlar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Raxbarning etakchilik salohiyati tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra bir necha ko'rsatkichlardan shakllanadi.

Etakchilik sifatlariga tirishqoqlik, bilim va tajribani tez o'zlashtirib olish, kasb ustasi bo'lish, ishchanlik, muammolarni oldindan ko'ra bilish, ishchilarni ilxomlantirish, notiqlik, dadillik kabi sifatlarini; shaxsiy fazilatlarga to'g'rilik, rostgo'ylik, odamiylik, ishchilarga g'amxo'rlik, kamtarlik, xushmuomalalik, ozodalik, o'zgarishlarga moslashuvchanlik kabi sifatlarini kiritish mumkin. Bizning fikrimizcha, qobiliyatlar va fazilatlar ro'yxati cheklanmagan, ularning barchasini o'zida

mujassamlashtirgan etakchi bo'lishi mumkin emas, chunki mutlaqo kamchiliksiz inson bo'lmaydi. SHuning uchun biz etakchilik salohiyati ko'rsatkichlari sifatida shartli ravishda muammolarni oldindan ko'ra olish, ishchanlik, ishchilarni ilhomlantirishni tanlab oldik.

- muammolarni oldindan ko'ra bilish - tabiyat va jamiyat rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlarini chuqur bilish va taxlil qilish natijasida yuzaga kelishi muqarrar bo'lgan voqea, xodisa, o'zgarishlarni aql bilan oldindan ko'ra olish;

- ishchanlik – mexnatga ijobiy, jo'shqin munosabatda bo'lish xususiyati, mehnatsevarlik, ishchanligi bilan mexnat jamoasida obro' qozonish;

- ishchilarni ilhomlantirish – odamlarning ruxiy xolatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, ulardagi ijodiy kuchlarning quyilib kelishiga undash, ruxiy jarayonlarni faollashtirib, qo'yilgan vazifalarni astoydil bajarishga safarbar eta olish.

Fermer xo'jaligi rahbarlarining shaxsiy fazilatlarini baholash uchun ishchilarga g'amxo'rlik, odob axloq, o'zgarishlarga moslashuvchanlik ko'rsatkichlarini tanlab oldik.

- ishchilarga g'amxo'rlik – ishchilarning mexnat sharoitlarini yaxshilash, ularning mexnatiga munosib xaq to'lash, malakasini oshirish imkoniyatini yaratish, ishchilarning shaxsiy muammolarini echishga yordam berish;

- odob – jamiyatda e'tirof etilgan xulq me'yori, shaxs ma'naviy xayotining tashqi jixatini ifodalaydigan o'zgalar bilan munosabatda namoyon bo'ladi.

- axloq – kishilarning bir-birlariga, oila a'zolariga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-xarakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui.

- o'zgarishlarga moslashuvchanlik – bozordagi vaziyatning tez o'zgaruvchanligi, ba'zan mavxumlighi sharoitida egiuvchan bo'lib odekvat echimlar topa olish.

Toshkent viloyati Toshkent tumani g'allakor fermer xo'jaliklari rahbarlarining etakchilik salohiyati va shaxsiy fazilatlarini baholash uchun o'tkazilgan so'rovda 108 nafar rahbar va 142 nafar ishchi, jami 250 respondent qatnashdi. Ular "Sunnat

Abdukarim” fermer xo‘jaligi raxbari Abdukarimov Ismat, “Amirxon Agro Biznes” fermer xo‘jaligi rahbari Abduljalilxonov Furqat, “Karomat Muruvvat Fayz” fermer xo‘jaligi raxbari To‘laganov Zoxidning etakchilik salohiyati va shaxsiy fazilatlarini bo‘yicha fikrlarini bildirishdi.

Respondentlar xar bir qobiliyatni 5 ballik tizimda baholashdi. Natijada har bir ko‘rsatkich bo‘yicha to‘planishi mumkin bo‘lgan maksimal ballar yig‘indisi (250 respondent x 5 ballga = 1250) kelib chiqdi. Ballar yig‘indisi 250 ga bo‘linib, o‘rtacha ballar aniqlandi. Natijada:

- Abdukarimov Ismat (yoshi 55 da, ma‘lumoti oliy texnik, ish staji 25 yil)ning etakchilik salohiyati 10.26;

- Abduljalilxonov Furqat (yoshi 38 da, ma‘lumoti oliy-agranom, ish staji 18 yil)ning etakchilik salohiyati 12.89;

- To‘laganov Zoxid (yoshi 58 da, ma‘lumoti o‘rta, ish staji 36 yil)ning etakchilik salohiyati 10.75 ballga tengligi aniqlandi. Korrelyasion taxlil natijasida quyidagilar aniqlandi:

- 1-omilning xos qiymati 1,059 ga teng, bu dispersiyaning 35,3% ni tushuntiradi. 2-omilning xos qiymati 1,047 ga teng, bu dispersiyaning 34,9% ni tushuntiradi. 3-omil, hisoblangan bo‘lsa-da, uning o‘ziga xos qiymati kichikroq bo‘lgani uchun saqlanmaydi.

- “Muammolarni oldindan ko‘ra olish” ko‘rsatkichi bo‘yicha omil vazni 1-omil bo‘yicha 0,811; 2-omil bo‘yicha 0,151 ga teng.

- “Ishchanlik” ko‘rsatkichi bo‘yicha omil vazni 1-omil bo‘yicha 0,286; 2-omil bo‘yicha 0,800 ga teng.

- “Ishchilarni ilhomlantirish” ko‘rsatkichi bo‘yicha omil vazni 1-omil bo‘yicha 0,566; 2-omil bo‘yicha -0,620 ni tashkil qiladi.

Bu qiymatlar o‘zgaruvchining o‘ziga xos bo‘lgan va saqlanib qolgan omillar bilan izohlanmagan dispersiya ulushini ifodalaydi. Fermer xo‘jaligi raxbari etakchilik salohiyati va shaxsiy fazilatlarining xarajatlar darajasiga ta’siri xosildorlikda namoyon bo‘ladi. Xosildorlik qanchalik yuqori bo‘lsa, xarajatlar darajasi shuncha past bo‘ladi.

So'rov natijalarini ekonometrik tahlili jarayonida tarkibiy tenglama modelidan foydalanildi. SEMda endogen o'zgaruvchilar – bu model ichida tushuntirilganlar, ekzogen o'zgaruvchilar esa modeldan tashqarida bo'lib, endogen o'zgaruvchilarni prognoz qilish uchun ishlatiladi. Tahlil natijalariga ko'ra hosildorlik endogen o'zgaruvchi, minerallar, etakchilik salohiyati va shaxsiy fazilatlar ekzogen o'zgaruvchilardir. Fermer xo'jaliklari raxbarlarining etakchilik salohiyati va shaxsiy fazilatlar xosildorlikka va g'alla etishtirish xarajatlari darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. “Sunnat Abdulkarim” fermer xo'jaligida etakchilik salohiyatining bir daraja ko'tarilishi xosildorlikni 3,547 birlikka oshirgan bo'lsa, “Amirxon agro biznes” fermer xo'jaligida bu ko'rsatkich 1,114 birlikka ortgan. Umuman, etakchilik salohiyati xosildorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, shaxsiy fazilatlar 0,05 darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi Qonuni. 01.04.2021. O'RQ-680 – son.
2. O'zbekiston Respublikasining “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi Qonuni. // Oliy majlis axborotnomasi. – T., 2004. №9. – B. 22-35.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning “2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni. 01.02.2022
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 05 apreldagi “2023 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risida” PQ 113-sonli qarori
5. O'zbekiston Respublikasi vazirlar maxkamasining 2022 yil 22 maydagi 312-sonli “G'alla etishtiruvchi xo'jaliklar va korxonalardan sotib olinadigan donni saqlash sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qarori.
6. Ansoff I. Strategicheskiy menedjment. Klassicheskoe izdanie. / per. s angl. pod. red Petrova A.N. – SPb.: Piter, 2009. 11 s.: il. – (Seriya «Teoriya menedjmenta»)

7. Yo'ldoshev N.Q. Strategik menejment. Darslik. - T.: «IQTISODIYOT», 2022. - 132 b.
8. A.Ortiqov. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. Uzbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. T.: TDIU, 2009, 280 bet. <http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/10/34-y-Sanoat-iqtisodiyoti.-Darslik.-A.Ortiqov.T-2009.pdf>
9. Porter M. Konkurentnaya strategiya: metodika analiza otrasley i konkurentov. Per. S angl. I.Minervin. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. 73 s.
10. SHeyxova M.A., Gasanguseynov M. Факторы snizheniya sebestoimosti zernovykh kultur. <https://cyberleninka.ru/article/n/factory-snizheniya-sebestoimosti-zernovyh-kultur>
11. Toshnazarova D. S. «Xarajatlar va tannarx tushunchasi, ularning mazmuni va tavsifi» "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. 35-b.
12. <http://www.prezident.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
13. www.stat.uz– O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
14. www.norma.uz–O'zbekiston Respublikasi huquqiy me'yoriy xujjatlar to'plami